



KINDERGARTENERS DEVELOP ORAL COMMUNICATION WHILE WORKING WITH PICTURES

Kalandarova Bakhtigul Ozod qizi

He has a master's degree in preschool education from UrSU

Annotation

This article explains how to use pictures to improve speech and thinking in preschool children.

Keywords; Cyclic pictures, speech, thinking, speech development, thinking development, text writing.

"Suratlar ko'rsatish va ularning mazmunini hikoya qilib berish murabbiyning bolalarga yaqinlashuviga eng yaxshi vositadir. Katta yoshli odamni boladan, ayniqsa, muallimni o'quvchilardan ajratib turuvchi to'siqni hech narsa bolalarga suratlar ko'rsatish va bu suratlarni tushuntirib berishdek tez buza olmaydi. Agar siz bolalardan gap chiqishi qiyin bo'lgan sinfga kirsangiz- suratlar ko'rsata boshlang, shu zahotiyoy sinfdagi bolalar gapira ketadilar, muhim shundaki, erkin, bamaylixotir gapiradilar" [1. 50].

"Go'dak tomonidan ona tilining o'zlashtirish jarayoni qanday kechishi uning nutqida narsa-buyum nomlarining ifodalanishi bilan belgilanadi" [2.80]

Bolalar og'zaki nutqini faollashtirish maqsadida tarbiyachi turli xil rasmlardan foydalanish yaxshi natija beradi. Bolani undashga majbur etadigan topshiriqlardan berish kerak. Bunday topshiriqlar bolaning fikrlash qobiliyatining kengayishiga yordam beradi. Masalan, bir jadval ichida qushlar rasmi ichida bir baliq, kapalak yoki chumolining rasmi bor deylik. Bolaga rasmni yaxshilab ko'rib chiqing va qushlarning nomini ayting, yo bo'lmasa shu rasmga qarab gap tuzing, deganda bolalar o'ylab qoladi, biroz qiynaladi, lekin fikr yuritib qushlar ichida boshqa narsa aralashib qolganini aniqlaydi. Bu narsa, albatta bolalarning tafakkuri vositasida amalga oshadi. Bu murakkab psixologik jarayon bo'lsa ham o'quvchilar uchun juda qiziq bo'lishi aniq. Bunday jarayonlar natijasida tarbiyalanuvchi yoshlar tafakkurida muhim o'zgarishlar kuzatiladi. Olim M.Mahmudov: "Yoshlarning fikrlashi, tafakkurini o'stirish, xotirasi va qobiliyatlarini taraqqiy ettirish masalasi o'qitish faoliyatining jamiyatdagi bajaradigan asosiy vazifalaridan" [3. 49.] ekanligini to'g'ri ta'kidlagan edi.

Rasmlar bilan ishslash bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, og'zaki nutq malakalarini o'stirishga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolalarning og'zaki nutqini o'stirishda rassomlardan Ch.Axmaron, E.Umarbekov, O'.Tansiqboyev, A.Abdullayev, V.Vereshagin, P.Bankov, T. Muhammedov, K.Basharov, N.Karaxina, I.Haydarov, M.Novikov, asarlaridan foydalansa juda yaxshi bo'ladi. Ayniqsa, N.Karaxanning "Oltin kuz". I.Xaydarovning "Oltin kuz", O'.Tansiqboyevning "Tog'da kuz", "O'zbekiston bahori", M.Kagorovning "Bola ilon bilan", Sh.Abdurashidovning "Baxmalda yoz" kabi reproduksiyalaridan foydalansa juda yaxshi bo'ladi. Afsuski, bunday rasmlar mакtabda ham, bog'chada ham yo'q. Do'konlarda esa sotilmaydi.

Bolalar og'zaki nutqini rasmlar bilan ishslash jarayonida o'stirish bo'yicha ish olib olib borish jarayonida quyidagicha ishlar o'tkaziladi:

"Ko'zboylag'ich" rasmi bo'yicha ish olib borish: bolalarga rasm ko'rsatib, rasmda kimlar yoki nimalar tasvirlangan, undagi narsa va ranglar nomi so'raladi. Bolalar nomlarni aytishda, odatdagidek, ko'proq ruscha so'zlarni ishlataladi ayrim rang nomlarini aytishga qiynaladilar. So'ngra rasm bo'yicha hikoya tuzdirishga o'tiladi. Bu ish murakkab tafakkur jarayonini talab etganligi



sababli bolalar unchalik faollik ko'rsatmasligi mumkin, faqat bir, ikki bola chiqib tahminan quyidagicha hikoya tuzishlari mumkin:

"Rasmda bolalar o'ynashyapti, bolaning oti Dilshod. Uning ko'zi bog'langan, u bolalarni topyapti". Bolalardan to'liq javob olinmagach, o'zimiz ularga to'liq javob berish uchun mashg'ulotni davom ettirish kerak. Bunda ularga rasm asosida savollar beriladi. Buni quyida ko'rib o'tamiz.

"Mushuk bilan chumoli" ertagi [4.] asosidagi rasm bilan ishlash.

Proektorda Aziz Abdurazzoqovning "Mushuk bilan chumoli" ertagiga ishlangan rassom Xurshid Ziyoxonning "Mushuk bilan chumoli" rasmini kattalashtirib ko'rsatib, o'quvchilar bilan quyidagicha suhbat o'tkazish lozim:

- Bolalar, siz bu rasmida nimalarni ko'ryapsiz?
- Mushukni, chumolini.
- Mushuk nima qilyapti?
- Yotibdi.
- Mushuk chumoliga nima dedi?
- Nima qilasan mehnat qilib, dampingni ol, dedi.
- Chumoli mushukka nima dedi?
- Mehnat qilish kerak.
- Mushuk qanday kiyingan?
- Oyog'iga etik kiyib olgan.
- Bolalar, kimni mehnatsevar deyish mumkin? Nima uchun?

Bu so'roqlarga javob olinib, berilgan javoblar to'ldirilib borildi. So'ngra o'quvchilarga "Bolalar, biz xuddi chumoliday mehnatsevar bo'lismiz karak" deb yakunlanadi. So'ngra mehnatsevarlik haqida suhbatni kengaytirish, o'rni bo'lsa shu haqda sodda maqollarni yod oldirib "Mushuk bilan chumoli" ertagini mazmuniga bog'lash zaruz.

Kuzatishlar va o'tkazilgan tadbirlar shuni ko'rsatadiki, bolalar bog'chasi tarbiyalanuvchilarining og'zaki nutqini o'stirish va shu asosida tafakkurini rivojlantirishda rasmlardan foydalanish mashg'ulotlarida turli mavzulariga bag'ishlangan rasmlar yig'imidan foydalanish ancha o'rinli ekanligi tasdiqlandi. Buning uchun quyidagi mavzulardagi rasmlardan og'zaki nutq o'stirish uchun foydalaniadi:

"Uy anjomlari" siklidagi rasmlar bilan ishlash.

Bunda tarbiyachi 1-suratdagi uy anjomlari nomini aniq qilib aytishi, so'ngra bolalardan uning nomlarini takrorlashini so'rashi lozim: stol, kreslo, divan, eshik, parda, gilam, karniz, deraza, pol, patolok, gul...

Yuqoridagi yevropacha uy anjomlarining nomini to'g'ri qo'llashga, talaffuzini to'g'ri aytishga o'rgatish bilan bolajonlar shu so'zlarni o'z nutqida faol qo'llay boshlaydilar. Shuni unutmaslik kerakki, bolalarning nutqi qanchalik boy bo'lsa ularning tafakkuri ham shunchalik keng bo'lishi isbotlab o'tirishning keragi bo'limgan haqiqatdir. Garchi uy anjomlarining nomlari mavhum taffakkurga juda katta ta'sir ko'rsatmasa ham fikrlashni yaxshilanishiga ijobiy ta'sir qilishi aniq.

Keyingi ish o'zbek milliy anjomlari bilan tanishtirish uchun boshqa rasmlarni ko'rsatib, undagi narsa-buyum nomlarini bolalarning o'ziga ayttiriladi. Bu jarayonda bolalar juda jonlanib, faollashib javob bera boshlaydilar. Shu rasmida tasvirlangan taxmon, ko'rpa, ko'rpacha, yostiq, gilam, deraza, parda, gilam, ship, eshik kabi so'zlarni qiynalmay aytdilar. Lekin turli millat bolalaridan tashkil topgan guruhlarda bolalar o'z tillaridagi so'zlarni qo'llab javob qaytarishdi. So'ngra har bir narsa-buyumlarnilarni bir xilda talaffuzga o'rgatib to'g'ri aytmaguncha to'g'ri aytishga erishish kerak.



So'ngra uy buyumlarining ranglari haqida va miqdori haqida suhbat o'tkaziladi. Shulardan so'ng har bir boladan uy buyumlari nomini ayttirib, ularning talaffuzidagi xatolarni to'g'irlab boriladi va suhbat so'ngida uy anjomlari haqida yakun yasaladi:

Sabzavot va ho'l mevalar siklidagi rasmlar bo'yicha ularning nomlari, ranggi, miqdori haqida suhbat o'tkazish mumkin. Unda, ayniqsa, bolalar rang bildiruvchi sifatlarni to'g'ri qo'llay olishga alohida e'tibor berish kerak. Chunki bolalar o'z ona tilisidagi so'zni (yashil o'rniiga zangori) yoki ruscha so'zlarni (krasniy, zelyonniy) so'zlarni ko'proq ishlatalilar. Bundan tashqari bolalar sabzavot va ho'l meva nomlarini o'zbek tilida to'g'ri talaffuz qilishga biroz qiynaladilar. Bolg'ari, garmdori, o'rniida bolgarskiy, perest, kartoshka deyish o'rniiga karchika, sabzi deyish o'rniiga gashir deb talaffuz qiladilar. Bu kamchiliklarni bartaraf qilish va bola tafakkurini rivojlantirish uchun quyidagi ish usulidan foydalanish lozim:

"Kesilgan tarvuz"li rasmga qarab tarvuz haqida: uning ranggi po'stlog'i, urug'i, po'chog'i haqida to'liq suhbat o'tkazish kerak.

Hayvonlar va qush parrandalar siklidagi rasmlar bo'yicha yuqoridagicha suhbat o'tkazish mumkin. Hayvonlarning nomi, ranggi, miqdori va harakat belgilari haqida suhbat olib boriladi. Yuqorida bo'lganidek, bu bo'limda ham bolalar eshitgan ertaklar ta'sirida hayvon va qush, parranda nomlarini o'z tili yoki shevasidagi so'z bilan, yoki ruscha nom bilan ataydilar (zaychik, zolotaya ribka, krasnaya shapichka; bajik, gechi qorinjo). Bu kamchilikni tarbiyachi ko'zdan qochirmasdan izchillik bilan tuzatib borishi, buning uchun mashg'ulotlarda bu so'zlarning to'g'ri qo'llangan shakli ishlatilgan jumlalardan ko'proq foydalanishi talab etiladi. Shu bilan mashg'ulot davomida tarbiyachi ularning xatolarini to'g'irlab borib, so'zlarning o'zbek tilida to'g'ri aytishini singdiradi. Suhbat – mashg'ulot davomida bolalar o'z xonadonlaridagi uy hayvonlari haqida batafsil so'zlab berishlari talab qilindi. Ancha yaxshi natijaga erishsa bo'ladi. Ular uydagilari hayvon-parranda nomlarini faol sanab keta boshlaydilar.

"Tabiat manzaralari" siklidagi rasmlar bo'yicha ishlaganda yuqoridagi ko'rsatmalarimizdek turli fasllar, ularning nomlari, fasllarda qanday hodisalar ro'y beradi, har bir faslning mavsumi haqida suhbat o'tkazildi. Tavsiya etilgan rasmlar asosida mashg'ulot o'tkazilganda bolalar ancha foydalanib, to'liq javob berishga o'tdilar. Masalan "Olma terish" rasmida bolalarga tanish bo'lgan narsalar (bola, olma, daraxt, barg, savat, yashik, narvon) ning nomini bolalar qiyalmay aytib beradilar. Ularning rangini ham to'g'ri aytishadi.

"Qishloq manzarasi" rasmiga qarab daraxtlar, toshlar, suv, tog', osmon, uylar kabi ko'plik va birlikda qo'llangan otlarni va turli rang bildiruvchi so'zlarni (yashil, ko'k, sariq, qizil) kabi to'g'ri qo'llashga o'rgandilar.

Demak, tarbiyachilar yuqoridagi kabi rasmlari mashg'ulotlarni ko'proq o'tkazishsa, bolalar og'zaki nutqining ravon bo'lishiga, lug'at boyligining oshishiga va fikrlash qobiliyatining o'sishiga katta yordam bergen bo'ladi. Rasmlar asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlar ko'rgazmali mashg'ulotlarning bir ko'rinishi bo'lganligi uchun ham bunday usuldan foydalanish ancha yaxshi natija beradi.

Rasmlari mashg'ulotlar, ayniqsa, ma'lum ertaklarga bog'liq chizilgan rasmlar asosida olib borilgan juda katta natijaga erishish mumkin. Buning uchun tarbiyachi turli mavzulardagi ertaklarga rasmlar chizdirib, shular asosida ertaklar mazmunini aytib beradi. Bolalar bilan ertak mazmuni bo'yicha savol-javob o'tkazgach bolalardan ertakning mazmunini aytib berishni talab qilinadi. Ertak mazmuni qisqa bo'lsa, bir-ikki boladan, mazmuni kengroq bo'lsa, uch-to'rt boladan qism-qism bo'yicha javob berishlarini talab qilinadi. Shunday biz rasmlarga qarab suhbat o'tkazish jarayonida



bolalarga narsa-predmet nomlarini, harakat ifodalovchi so‘zlarni, rang-tus yoki boshqa xil belgi bildiruvchi so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llay bilish va to‘g‘ri talaffuz qilishga o‘rgatdik. Bu ishda ko‘proq boshqa voha bolalarining o‘zbekcha nomlarini bilib olishi va aniq talaffuz etishi, shuningdek, turli shevaga xos so‘zlarni o‘zbek adabiy tili normalariga mos qo‘llay olishlariga erishish kerak bo‘ladi.

Bog‘cha tarbiyalanuvchilarining og‘zaki nutqini kuzatib va shu masalada tajribalar olib borish natijasida quyidagi tavsiya va takliflarni bildirish mumkin:

O‘zbek xalqi hayotidan, o‘zbek bolalari hayotidan olingan rasmlardan ko‘proq foydalanish va shu asosida suhbat o‘tkazish;

Bolalar hayotida ko‘p uchraydigan narsalar bo‘yicha rasmlar ustida ishlash. Masalan, ”Yil fasllari”, ”Mevalar”, ”Sabzavotlar”, ”Gullar”, ”Transportlar”, ”Oshxona” haqida suhbat;

Rasm bilan ishlash jarayonida bolalarning talaffuziga, so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llashlariga rioya qildirishdir;

Ko‘proq o‘zga millat bolalari bilan muloqotda bo‘lish va ularning nutqiga ahamiyat berish;

Rasm chizish va plastilindan narsalar yasash mashg‘ulotlarini nutq o‘stirish uchun foydalanish.

Yuqorida ishlarni amalga oshirishda proektordan ham foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ro‘ziboyeva O.Sh. Uzluksiz ta’lim jarayonida Bolalar bog‘chalati tarbiyalanuvchilari va I sinf o‘quvchilari og‘zaki nutqini otirish. Peda.fan.nomzodligi dissertatsiya. T. 1995.
2. Qurbonova M. O‘zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixologik tadqiqi. Peda.fan.nomzodligi dissertatsiya. T. 2003.
3. Mahmudov M. Bolalarni ouv maqsadlari – ta’limni ilmiy loyihalash omili// Xalq ta’limi – 2005. - №5 – Б.49.
4. <http://ertaklar.uz/uz/mushuk-bilan-chumoli/>

Muallif(lar) haqida ma’lumotlar(maqola matni so‘ngida beriladi).

Muallifning F.I.SH. (to‘liq)	Qalandarova Baxtigul Ozod qizi
Sho‘ba nomi	Kognitiv pedagogikaning dolzarb masalalari.
Maqolaning mavzusi	Rasmlar bilan ishlash jarayonida bog‘cha tarbiyalanuvchilari og‘zaki nutqini o‘stirish
Lavozimi, ilmiy darajasi, unvoni	UrDU maktabgacha ta’lim yo‘nalishi magistranti
Ish joyi	UrDU
Telefoni (kodi bilan)	+998 99 5035766
E-mail	javlambekmatnazarov@gmail.com